

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI



ILMIY
AXBOROTNOMA

2025

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI

- НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО
ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА
- SCIENTIFIC BULLETIN OF
NAMANGAN STATE UNIVERSITY



E.Tursunaliyeva.....	
Insonga xizmat qilish milliy siyosat va oliy qadriyat sifatida.	
M.Abduraxmanova, T.Vaxabova.....	429
Ekologiya va biologik xilma-xillikni asrash borasida o'zbekiston ekologik siyosatining yangi modelini shakllantirish zaruriyati.	
A.Ashurov.....	433
Improving legal literacy of citizens in our country and the essence of reforms being implemented in this area.	
B.Kenjayeve.....	440
Yoshlar yetakchilari bu – jamiyatda yoshlarning ijtimoiy-madaniy jihatdan ijtimoiylashuviga manipulyativ ta'sir ko'rsatuvchi davlat xizmatchilaridir.	
Sh.Xonimov.....	446
Axborotlashayotgan jamiyatda yoshlarning tafakkur tarzidagi o'zgarishlar.	
I.Karimov.....	451
"Nafs"ning inson tabiatidagi zotiy, xulqidagi sifatii, amallaridagi fe'liy belgilari va ko'rinishlari.	
B.Absattorov.....	454
Zamonaviy oliy ta'lim tizimida falsafa fanining ma'naviy-ma'rifiy ahamiyati.	
A.Abdullayev.....	460
Harbiy madaniyat shakllanishi va uning ta'limdagi o'rni.	
S.Qaxxarov.....	466

FILOLOGIYA FANLARI
10.00.00 - ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ
PHILOLOGICAL SCIENCES

Matnni til birligi sifatida o'rganish.	
A.Shodikulova.....	473
Insufficient and irregular degrees of comparison of adjectives.	
S.Yorova, A.Zainab.....	476
Studying speech activity verbs in teaching: methodological approaches for english and uzbek languages.	
D.Ziyoyeva.....	479
O'zbek va ingliz bolalar folklorida topishmoq va ertaklarning qiyosiy tipologiyasi.	
O.Fayzulloev.....	482
Эволюция образа медеи в русской и зарубежной литературе.	
Д.Кадимова, М.Тохироа.....	486
Dan Brown asarlarida kod va jumboqlar tasviri.	
Z.Safarova, D.Niyazova.....	491
Muloqotning aktuallashuvi va virtuallashuvi.	
I.Isroilova.....	495
Jahon lug'atshunosligida so'zlikning umumiy xarakteristikasi va hajmi.	
U.Rahmonov.....	500
English borrowed words in the uzbek language.	
M.Sharipova.....	504
"Televideniye" semantik maydoni leksik birliklarining antonimik munosabatlari.	
F.Samatov.....	507
The role of cognitive linguistics in understanding perception across english and uzbek.	
B.Karabaeva.....	511
O'zbek va ingliz tillaridagi zoofrazemalarni o'quv lug'atlarda berilishi.	
O.Xoshimova.....	515
Ta'limda ta'na-dashnomning ta'siri va o'qituvchi hamda talaba o'zaro munosabatlarning diskurs tahlili.	
I.Ataboyev.....	518
Dunyo tilshunosligida til va uning evolyutsiyasi bilan bog'liq ta'limotlar va qarashlar tarixiga nazar.	
M.Abduvaliyev.....	521
Sadriddin Ayniyning "Sudxo'ring o'limi" qissasida ma'naviy tanazzul va jamiyat axloqi.	
M.Mardanova.....	530
Nostalgik leksik birliklarning semantik tahlili.	
R.Xayitova.....	534
Memuar janrining nazariy masalalari.	
M.Muhammadzokirova.....	537
Интерференция родного языка в русской речи студентов – лингвистов.	
K.Камалова.....	542

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-3]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOGICAL

Safarova Zilola Tolibovna
Buxoro Davlat Universiteti dotsenti
Niyazova Dilnoza Jo'rayevna
Buxoro davlat Universiteti magistranti
d.j.niyazova@buxdu.uz

DAN BROWN ASARLARIDA KOD VA JUMBOQLAR TASVIRI

Annotatsiya: Den Braun detektiv romanlarida janrning klassik elementlarini o'ziga xos xususiyatlar bilan boyitib, ularni keng ommaga mashhur va qiziqarli qiladi. Uning asarlarida kodlar, shifrlangan xabarlar va sirli jumboqlar asosiy o'rin tutadi. Qahramonlar tarixiy, ilmiy va san'atga oid sirlarni aniqlash uchun intellektual izlanishlar olib boradilar. Da Vinchi siri, Farishtalar va Shaytonlar, Yo'qotilgan ramz va Inferno romanlarida muallif ramzlar, numerologiya va yashirin ma'nolar orqali o'quvchilarni aql-zakovatli qidiruv jarayoniga jalb etadi. Tarixiy va ilmiy faktlarga asoslangan ushbu asarlar detektiv janrga ma'rifiy va hayajonli tus bag'ishlaydi.

Kalit so'zlar: detektiv janr, kodlar, shifrlangan xabarlar, tarixiy sirlar, ramzlar, numerologiya, intellektual jumboqlar.

Сафарова Зилола Толибовна
Доцент Бухарского государственного университета
Ниязова Дилноза Джураевна
Магистрант Бухарского государственного университета

ОПИСАНИЕ КОДА И ГОЛОВОЛОМОК В ТВОРЧЕСТВЕ ДЭНА БРАУНА

Аннотация: Детективные романы Дэна Брауна сочетают классические элементы жанра с уникальными особенностями, делая их популярными и раскрывая новые грани детектива. В его произведениях центральное место занимают коды, зашифрованные сообщения и загадки, которые двигают сюжет вперед. Герои ведут интеллектуальные исследования, раскрывая исторические, научные и художественные тайны. В романах Код да Винчи, Ангелы и демоны, Утраченный символ и Инферно автор использует символы, нумерологию и скрытые значения, вовлекая читателей в увлекательный процесс поиска. Благодаря историческим и научным отсылкам его книги делают детективный жанр более познавательным и захватывающим.

Ключевые слова: детективный жанр, коды, зашифрованные сообщения, исторические тайны, символы, нумерология, интеллектуальные загадки.

Safarova Zilola Tolibovna
Associate professor of Bukhara State University
Niyazova Dilnoza Juraevna
Master student of Bukhara State University

THE DESCRIPTION OF CODE AND PUZZLES IN THE WORKS OF DAN BROWN

Annotation: Dan Brown's detective novels combine classic elements of the genre with unique features, making them widely popular and revealing new aspects of the genre. His works prominently feature codes, encrypted messages, and mysterious puzzles that drive the storyline forward. Through intellectual investigations, his characters uncover historical, scientific, and artistic secrets. Brown's novels, such as The Da Vinci Code, Angels and Demons, The Lost Symbol, and Inferno, integrate symbols, numerology, and hidden meanings, engaging readers in deep intellectual exploration. His storytelling style, rich in historical and scientific references, transforms detective fiction into an educational and thrilling experience.

Key Words: detective genre, codes, encrypted messages, historical mysteries, symbols, numerology, intellectual puzzles.

Kirish

Den Braun o'z asarlarida detektiv janrining klassik belgilariga xos xususiyatlardan mohirona foydalanib,

janrning yangi qirralari bilan jahon adabiyotining boyishiga sabab bo'ldi. Uning bunday o'ziga xos yondashuvi asarlarni mashhurlik cho'qqisiga olib chiqdi.

Den Braun ijodi detektiv janrining asosiy elementlaridan biri bo'lgan kodlar va shifrlangan xabarlar tez-tez qo'llanilishi bilan ajralib turadi. U bunday sirli kodlar va shifrlardan foydalanib, qahramonlarini aqliy o'yinlarga chorlaydi, kitobxonni ham voqealarning shunchaki kuzatuvchisi emas, balki, faol ishtirokchisiga aylantiradi.

Jumladan, "Da Vinchi siri" va "Farishtalar va Shaytonlar" asarlarida kodlangan xabarlarni yechishga urinish orqali qahramonlar yanada murakkab jumboqlar bilan yuzlashadilar va turli sirli tashkilotlarning ish faoliyatini fosh qilishga muvaffaq bo'ladilar. Bu kodlar hikoyaning detektiv elementini mustahkamlab, o'quvchini ham qahramonlar bilan birgalikda jumboqlarni yechishga jalb qiladi.

Adabiyotlar tahlili

Adibning "Da Vinchi siri" asari kod va shifrlangan xabarlar orqali tarixiy va diniy sirlarni ochishga qaratilgan. Kitob qahramonlari, professor Robert Lengdon va Sofi Neve, Luvr muzeyidagi qotillikdan boshlangan izlanishda Leonardo da Vinchining "Mona Liza" asaridan va boshqa mashhur san'at asarlaridan yashirin xabarlarni topishga muvaffaq bo'ladilar. Masalan, qotillik sodir bo'lgan sahnada qurbonning o'z tanasiga shifrlangan xabar qoldirgani sirli jumboqni yechishga boshlang'ich nuqta bo'ladi. Ushbu shifrlangan xabarlarda raqamli kodlar, anagrammalar va da Vinchining asarlaridagi ramziy ishoralar yashiringan bo'lib, ularni yechish orqali Lengdon va Sofi qotillik ortidagi chuqurroq sirlarni ochishga yaqinlashadi. Bu kodlar asar davomida qahramonlarni yangi jumboqlar tomon boshlaydi va o'quvchini hikoya bilan birga intellektual izlanishlarga chorlaydi:

"Even so, many art historians suspected Da Vinci's reverence for the Mona Lisa had nothing to do with its artistic mastery. In actuality, the painting was a surprisingly ordinary sfumato portrait. Da Vinci's veneration for this work, many claimed, stemmed from something far deeper: a hidden message in the layers of paint. The Mona Lisa was, in fact, one of the world's most documented inside jokes. The painting's well-documented collage of double entendres and playful allusions had been revealed in most art history tomes, and yet, incredibly, the public at large still considered her smile a great mystery".[1]

Ushbu parchada muallif buyuk rassom, uning ijodi, mashhur asariga oid nafaqat sirli va jumboqli ma'lumotlarni, balki tarixiy haqiqatlarni ham keltiradiki, bevosita kitobxon haqiqatda Leonardo da Vinchi portretlariga qiziqib qoladi. Ko'plab san'atshunoslar Da Vinchining *Mona Liza*ga bo'lgan munosabatiga shubha qilishgan. Aslida, bu rasm ajablanarli darajada oddiy *sfumato* uslubidagi portret. Den Braun qahramonlardagi ong oqimi yordamida ancha chuqurroq narsaga — bo'yoq qatlamlaridagi yashirin xabarga ishora qiladi. *Mona Liza*, aslida, dunyodagi eng ko'p o'rganilgan, ammo kashf qilinmagan asarlaridan biri, uning ikki ma'noli va o'yinli

ishoralar bilan boyitilgan kollaji ko'pgina san'at tarixi kitoblarida ochib berilgan, biroq shunga qaramay, keng jamoatchilik uning tabassumini hali ham katta sir deb hisoblashi hech kimga sir emas.

"Farishtalar va Shaytonlar" asarida Den Braun Illuminatlar tashkilotining ramziy belgilar va shifrlangan xabarlarini qo'llagan. Kitobning bosh qahramoni Robert Lengdon, Rim papasining o'limi va muqaddas Vatikan shahridagi fitnani ochishga urinadi. Kitobda Illuminatlarning ramziy belgilaridan foydalanilib, qahramonlar Vatikan va Rimda yashiringan kod va simvollarni yechishga majbur bo'lishadi. Bu belgilar antik simbolika va tarixiy sirlarni o'z ichiga oladi va qahramonlar ularni yechish orqali jinoiy fitnani fosh qilishga yaqinlashadi. Ayniqsa, "*ambigram*" deb nomlangan raqamlar va so'zlar teskari o'qilganda ham bir xil ko'rinishda qoladi, bu esa kodlarning murakkabligini va sirli izlanishning o'ziga xosligini oshiradi. Shu bilan birga, har bir yangi kod muayyan joylarga ishora qiladi, bu esa kitob voqealarini real geografik joylarda tasvirlash va o'quvchilarning xayolida jonlantirish imkonini beradi.

"Yo'qotilgan ramz" asarida Den Braun masonlik tashkilotiga xos kod va shifrlardan foydalanadi. Asar davomida qahramonlar maxfiy belgilar va ramzlarni yechishga harakat qilib, Amerikaning siyosiy tarixiga chuqur kirib boradilar. Bu asarda ham Robert Lengdon bosh qahramon sifatida ishtirok etadi va u masonlarning ramzlari va kodlarini yechish orqali sirli tashkilotlar va ularning tarixini o'rganadi. Bu kodlar orasida numerologiya, kabalistlar va boshqa maxfiy bilimlardan foydalanilgan belgilar mavjud bo'lib, ular hikoya davomida yangi sirlarga yo'l ochadi. Kitobda Berlingotni buzmaslik maqsadida shifrlangan qatorlar va nomerlarni yechishga qaratilgan murakkab matematik va tarixiy jumboqlar o'quvchilar xayolini butkul qamrab oladi va ularning qiziqishini yanada oshiradi.

"Inferno" asarida ham kodlar va shifrlangan xabarlardan o'rinli foydalanilgan. Kitobning asosiy sirli xabarlari Dantening "Ilohiy komediya" asari va undagi ramziy belgilarga asoslangan. Asarda virusni tarqatish orqali insoniyatni qutqarishni istagan jinoyatchi murakkab ramzlar va kodlar qoldirib, Lengdonni murakkab va qiziqarli izlanishlarga boshlaydi. Dantening she'ridagi ramziy belgilar va kodlar orqali Den Braunning qahramonlari qizg'in izlanish olib boradilar va nihoyat qotillik sirini ochadilar. Den Braunning kod va shifrlar orqali hikoyalarida yaratilgan izlanish uslubi o'quvchiga detektiv hikoyaga chuqurroq kirib borishga imkon beradi. Kod va shifrlar o'quvchini yangi sirlarga chorlashi orqali janrni yanada qiziqarli va jozibali qiladi. Bu uslub o'quvchilarni ilmiy, tarixiy va madaniy bilimlarni chuqurroq o'rganishga undaydi va detektiv janrni intellektual izlanish sifatida kengaytiradi.

Den Braunning ijodiga xos detektivlik sirlarini an'anaviy asarlardagidek faqat politsiya yoki tergov

ishlari bilan bog'lash mumkin emas. U o'z rivoyasini tarix va ilm-fan bilan bog'langan jumboqlar va muammolar orqali boyitadi. Qahramonlari ko'pincha qadimiy diniy sirlar, ilmiy kashfiyotlar yoki san'at asarlariga oid qiziqarli haqiqatlarni o'rganish orqali jinoyatni yechishga harakat qiladilar. "Yo'qotilgan ramz" asarida masonlik sirlarini, "Inferno"da esa Dantening "Ilohiy komediya"sidagi sirli xabarlarini yechishga asoslangan qahramonlar izlanishlari bunga misol bo'la oladi. Bu xususiyatlar detektiv janrga tarixiy va ilmiy qiziqish bag'ishlab, asarlarni yanada chuqur va mazmunli qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Den Brauning romanlari ilmiy va tarixiy bilimlarga asoslangan sirli hodisalar bilan boyitilgan bo'lib, bu uning detektiv janrida o'ziga xos va qiziqarli uslubini ta'minlaydi. Uning asarlarida tarixiy faktlar, ilmiy nazariyalar va madaniy meros o'rin oladi, bu esa o'quvchilarga qiziqarli voqealarni ko'rish va ulardan ko'proq bilim olish imkoniyatini beradi. Brauning romanlaridagi ilmiy va tarixiy bilimlar o'zaro bog'langan holda, asarlarning markaziy temalarini tashkil etadi.

Natijalar va muhokama

Den Brauning romanlarida tarixiy bilimlardan keng foydalanilganligi tufayli qahramonlar tarixiy voqealar va shaxslar bilan bog'liq sirli kodlarni yechish maqsadida tarixiy shaxslarning hayoti va faoliyatlari, shu jumladan, diniy va madaniy meros haqida ko'p o'qiydilar. Bu bilimlar o'quvchilarga tarixiy kontekstni tushunishga va kashfiyotlar jarayonida qahramonlar bilan birga bo'lishlariga yordam beradi. Misol uchun, da Vinchining asarlarida yashirin ma'nolarni ochish orqali qahramonlar muhim tarixiy haqiqatlarni kashf etadilar.

Masalan, "Da Vinci Kodi" romanining bir nuqtasida bosh qahramon tomonidan rassom asarini batafsil tahlil qilingani tasvirlanadi. Lengdon Mona Lizaning sirini juda kutilmagan bir guruh bilan — Esseks okrugi qamoqxonasidagi o'nlab mahbuslar bilan bo'lishadi. Lengdonning qamoqxonadagi ushbu seminari Harvardning qamoqxona tizimiga ta'lim olib kirishga intilayotgan tashabbusi doirasida tashkil etiladi. Lengdonning hamkasblari bu dasturga hazil bilan "Mahbuslar uchun madaniyat" deb nom qo'yishadi. Shu suhbatda voqea quyidagicha tasvirlanadi: *"Da Vinci painted the horizon line on the left significantly lower than the right."* *"He screwed it up?" one of the inmates asked. Langdon chuckled. "No. Da Vinci didn't do that too often. Actually, this is a little trick Da Vinci played. By lowering the countryside on the left, Da Vinci made Mona Lisa look much larger from the left side than from the right side. A little Da Vinci inside joke. Historically, the concepts of male and female have assigned sides—left is female, and right is male. Because Da Vinci was a big fan of feminine principles, he made Mona Lisa look more majestic from the left than the right."*^[1]

Ko'rinib turibdiki, Den Braun bunday tasvirlar orqali nafaqat mahbuslar, balki kitobxonlarning diqqatini

ham bir nuqtaga jamlashga muvaffaq bo'lgan. Kitobxonni, o'qiyotgan ma'lumotim nahotki haqiqat bo'lsa degan o'y-fikrlar chulg'ab oladi.

Muallif asarlarida, shuningdek, ilmiy nazariyalar ham markaziy rol o'ynaydi. "Farishtalar va Shaytonlar" asarida Den Brauning qahramonlari fizika va astronomiya kabi fanlarni o'rganishadi. Bu asarda ilmiy bilimlar, masalan, *"qaror qabul qilish nazariyasi"* va *"nuklear energiya"* kabi tushunchalardan foydalaniladi. Bu o'rinda qahramonlar ilmiy faktlar yordamida jinoyatni fosh qilishda harakat qiladilar, bu esa o'quvchini nafaqat qiziqarli voqealar bilan, balki ilmiy ma'lumotlar bilan ham tanishtiradi.

Den Brauning romanlari ilmiy va tarixiy hodisalarni o'z ichiga olish bilan bir qatorda, falsafiy muammolarni ham o'rtaga tashlaydi. "Inferno" asarida insoniyatning kelajagi, ahloqiy masalalar va ilm-fan bilan din o'rtasidagi munosabatlar haqidagi savollar ko'tariladi. Dantening "Ilohiy komediya" asari bilan bog'liq kodlar va sirlar, o'quvchilarga hayot, o'lim va insoniyatning ma'nosi haqida chuqur o'ylash imkonini beradi.

Tahlillardan ayon bo'lyaptiki, har bir yangi sir va kod, o'quvchilarni yangi bilimlarga qiziqtiradi va ularning aqliy qobiliyatlarini sinovdan o'tkazadi. Misol uchun, "Da Vinci siri" romanida joylashgan ramzlar va tarixiy haqiqatlar, o'quvchilarni tarixiy tadqiqotlar va ilmiy izlanishlarga jalb etadi. Bu hodisalar asarlarni nafaqat detektiv hikoya sifatida, balki bilim va ma'rifat manbai sifatida ham qiziqarli qiladi:

"Hey, Mr. Langford," a muscle-bound man said. "Is it true that the Mona Lisa is a picture of Da Vinci in drag? I heard that was true." "It's quite possible," Langdon said. "Da Vinci was a prankster, and computerized analysis of the Mona Lisa and Da Vinci's self-portraits confirm some startling points of congruency in their faces. Whatever Da Vinci was up to," Langdon said, "his Mona Lisa is neither male nor female. It carries a subtle message of androgyny. It is a fusing of both."^[2]

Den Braun ilm olamida ko'pchilikni qiziqtirayotgan sirli jumboq, tarixiy faktga javob izlashga harakat qiladi. Yuqorida keltirilgan parchada ham rassom va u yaratgan asar o'rtasida bog'liqlik mavjudligi bilan bog'liq farazlar ilmda mavjud ekani, olimlar anchadan beri buni asoslashga harakat qilayotgani borasidagi ma'lumot ilgari suriladi. Den Braun shu farazga muallif sifatida o'zining xulosasini bayon etadi. Bu bilan kitobxonni ham mushohada qilishga, atrofida sodir bo'layotgan voqealarga mustaqil fikrga ega bo'lishga undaydi.

Yozuvchi asarlarning teranligi va boy ma'nosi, o'quvchilarga o'zlariga yangi qirralar kashf etishga imkon beradi va Den Brauning detektiv asarlarini o'ziga xos qiladi. Uning asarlarida voqealar tez rivojlanadi va ularni o'qish jarayoni o'quvchini doimiy shiddat va harakat bilan ushlab turadi. Kinematik uslubda yozilgan sahnalar o'quvchi xayolida jonlanadi va qahramonlarning

harakatlarini vizual tasavvur qilishga imkon beradi. Har bir qadamda yangi ma'lumot ochilishi, kodlar yechilishi va qahramonlar uchun yangi qiyinchiliklar yuzaga kelishi orqali hikoya dinamikasi saqlanadi. Adib voqealarni tezkor tarzda bayon qilgani uchun o'quvchi asardan uzilmasdan oxirigacha qiziqish bilan o'qiydi. Shuningdek, qahramonlar ham har bir yangi kashfiyot orqali o'zlarida aqliy o'zgarishlar sodir bo'lganini his qiladilar. Har bir sirli jumboq qahramonning shaxsiy o'sishiga, dunyoqarashi va ishonchlariga ta'sir qiladi, bu esa asarlarga nafaqat detektivlik, balki psixologik ruhni ham qo'shadi.

Den Braun qahramonlari faqatgina voqealar davomida harakat qilibgina qolmay, balki ichki ruhiy o'zgarishlar va yangi ko'nikmalarni o'zlashtirish jarayonini boshdan kechirishadi. Bu, o'quvchilarni qahramonlar bilan birga hissiy jihatdan bog'lashga imkon beradi va hikoyalarning teranligini oshiradi. Adibning eng mashhur qahramonlaridan biri, professor Robert Lengdon, murakkab qahramon sifatida o'zining bilimdonligi, aqliy qobiliyati va tarixiy bilimlari bilan ajralib turadi. Har bir asarda Lengdon yangi sirlar va muammolar bilan yuzma-yuz keladi, bu esa uni o'z bilimlarini sinab ko'rishga va yangi g'oyalar bilan ishlashga majbur qiladi. Misol uchun, "Da Vinchi siri" asarida u o'zining o'tmishi, bilimlari va ijtimoiy ahamiyatini o'rganadi, bu esa uning shaxsiy qiyinchiliklarini yengishga imkon beradi. Lengdonning ongida sodir bo'layotgan o'zgarishlar, o'quvchilarga inson

tabiati va uning hissiyotlari haqida chuqur o'rganishga yordam beradi.

Den Braun ko'pincha maxfiy tashkilotlar va global fitnalar bilan bog'liq sirlardan ham foydalanadi, bu esa uning asarlarini ko'plab boshqa detektiv romanlardan ajratib turadi. "Da Vinchi siri" asarida Sion prioryasi va Opus Dei tashkiloti bilan bog'liq sirlar, "Farishtalar va Shaytonlar" romanida esa Illuminatlar tashkiloti haqida hikoya qilinadi. Ushbu maxfiy tashkilotlar haqida hikoya qilish orqali Den Braun o'quvchini keng qamrovli va global miqyosda o'ylashga chorlaydi. Bu nafaqat qahramonlarga, balki o'quvchilarga ham aqliy va ruhiy izlanish olib borish imkoniyatini beradi.

Den Braunning detektiv janriga qo'shgan yana bir muhim o'ziga xosligi shundaki, u diniy va falsafiy savollarni ochiq qoldiradi va o'quvchini bu mavzular haqida chuqur o'ylashga undaydi. "Inferno" romanida insoniyatning kelajagi haqida falsafiy savollar qo'yiladi, "Yo'qotilgan ramz" asarida esa insoniyat va bilimning chegaralari haqida mulohaza yuritiladi. Shu tarzda, Den Braun o'z asarlarida detektiv janrni nafaqat syujet asosi sifatida, balki diniy va falsafiy masalalarni muhokama qilish vositasi sifatida ham ishlatadi.

Xulosa

Den Braunning detektiv asarlari, yuqoridagi barcha xususiyatlarni uyg'unlashtirib, o'quvchilarga shunchaki qiziqarli voqealarni emas, balki ilmiy, tarixiy va falsafiy izlanishlarni ham taqdim etadi. Bu esa uning detektiv janrga qo'shgan asosiy hissasi va o'ziga xosligi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Dan Brown. The Da Vinci Code. Robert Langdon. Knopf Doubleday Publishing Group, 2003. – P.100
2. Dan Brown. The Da Vinci Code. Robert Langdon. Knopf Doubleday Publishing Group, 2003. – P.101
3. Dan Brown. Angels & Demons. POCKET BOOKS, a division of Simon & Schuster Inc. 1230 Avenue of the Americas, New York, NY 10020 – 379 p
4. Dan Brown. The lost symbol. Doubleday Publishing Group, 2009 – 339 p
5. Lacy, Norris J. "The Da Vinci Code": Dan Brown and The Grail That Never Was. // *Arthuriana*, 2004, Vol.14, No.3.// pp.81-93.//
6. Giannini, John. The Sacred Secret: The Real Mystery in The Da Vinci Code. // *Jung Journal: Culture & Psyche*, Vol.2, No.2. // pp.63-84.
7. Ika Nofi Indria Wati. The need for virtual ethics in Dan Brown's Digital Fortress. – Surakarta, 2009. – 11 p
8. Safarova Z.T., Niyazova D.J. Den Braun asarlarida detektiv janr xususiyatlarining namoyon bo'lishi// *Namangan Davlat Universiteti Ilmiy Axborotnomasi*, 2024. 2– son. -p. 315.